

**MEVA-SABZAVOTCHILIK KLASTERLARI FAOLIYATI VA ULARNI  
BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI**

*Mannopova Muazzamxon Sultonbekovna*

*Farg`ona davlat universiteti, katta o`qituvchi*

*Nematova Shaxlo Egamgamberdievna*

*Farg`ona davlat universiteti, o`qituvchi*

**ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ПЛОДООВОЩНЫХ КЛАСТЕРОВ И ОРГАНИЗАЦИОННО-  
ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ИХ УПРАВЛЕНИЯ**

Маннопова Муаззамхон Султонбековна

Ферганский государственный университет, ст.преподаватель

Нематова Шахло Эгамгамбердиевна

Преподаватель, Ферганский государственный университет

**ACTIVITY OF FRUIT AND VEGETABLE CLUSTERS AND ORGANIZATIONAL  
AND ECONOMIC MECHANISMS OF THEIR MANAGEMENT**

Mannopova Muazzamxon Sultonbekovna - teacher Fergana State University

Nematova Shaxlo Egamgamberdievna- teacher of the Fergana State University

**Annotatsiya.** Maqolada iqtisodiyotning qishloq xo`jaligi sohasida meva-sabzavotchilik klasterlarining ahamiyati, meva – sabzavot klasterlarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, qishloq xo`jaligi mahsulotlarini yetishtirish va ularni qayta ishlashga qaratilgan islohotlarni chuqurlashtirishda agrar siyosatini olib borilishining ahamiyati ko`rsatib o`tilgan. Meva-sabzavotchilik klasterlarini boshqarishdagi tashkiliy-iqtisodiy mehanizmlarini takomillashtirish masalalari ko`rsatilgan.

**Kalit so‘zlar.** Klaster, mintaqa, rivojlanish, ishlab chiqarish, qayta ishlash, meva – sabzavotchilik, jahon bozori, xorijiy tajriba, boshqaruv, tashkiliy iqtisodiy mexanizm.

**Аннотация.** В статье рассматривается значение плодоовощных кластеров в сельскохозяйственном секторе экономики, вопросы совершенствования механизмов управления плодоовощными кластерами. Также указывается на важность проведения аграрной политики в углублении реформ, направленных на выращивание сельскохозяйственной продукции и ее переработку. Обозначены вопросы совершенствования организационно-экономических механизмов управления плодоовощеводческими кластерами.

**Ключевые слова.** Кластер, регион, разработка, производство, переработка, плодоовоощеводство, мировой рынок, зарубежный опыт, управление, организационно-экономический механизм.

**Annotation.** The article discusses the importance of fruit and vegetable clusters in the agricultural sector of the economy, the issues of improving the management mechanisms of fruit and vegetable clusters. The importance of agrarian policy in deepening reforms aimed at the cultivation of agricultural products and its processing is also pointed out. The issues of improving the organizational and economic management mechanisms of fruit and vegetable clusters are outlined.

**Keywords.** Entrepreneurship, cluster, region, development, production, processing, fruit and vegetable growing, world market, foreign experience, management, organizational-economic mechanism.

Agrosanoat majmuining yetakchi tarmoqlaridan biri hisoblangan meva-sabzavotchilikni rivojlantirish aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari, sanoat korxonalarini esa xom-ashyo resurslariga bo‘lgan talabini uzlucksiz qondirish imkoniyatini beradi. Qolaversa, O‘zbekiston meva-sabzavotchilik mahsulotlari yetishtirish uchun potensiali yuksak sanoat tovarlari ishlab chiqarish salohiyatiga ega mamlakatdir. Hozirgi kunda butun dunyoda hukm s urayotgan pandemiya va karantin sharoitida, aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyoji kamaymasligi uchun meva-sabzavotchilik tarmoqlarida mahsulot yetishtirish hajmini yanada oshirish, mavjud resurslardan samarali foydalanish muhim vazifa hisoblanadi. Bu borada esa O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi PF-5853-sonli Farmoni asosida “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan Strategiyasi” qabul qilindi. Qabul qilingan Strategiyaning asosiy maqsadi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tarmog‘ining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan islohotlarni yanada chuqurlashtirishda davlat siyosatini tubdan takomillashtirishga yo‘naltirilgan. Chunki yiliga 21 million tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari etishtirilmoqda. Ammo mahsulotning qariyb 80 foizdan ortig‘i qayta ishlanmasdan qolmoqda. O‘tgan yili 12 million 592 ming tonna sabzavot va kartoshka, 2 million 731 ming tonna meva, 1 million 850 ming tonna poliz mahsulotlari, 1 million 556 ming tonna uzum va boshqa mahsulotlari yetishtirildi. So‘nggi yillarda qariyb 100 ming getkarda mevali bog‘ va tokzorlar barpo etildi. Keyingi uch yilda 22 ming getkardan ziyod maydonda ilmiy asoslangan intensiv bog‘ tashkil qilindi. Seleksioner olimlar yaratgan iqlim sharoitimizga mos, qurg‘oqchilikka, kasallik va zararkunandalarga chidamli sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkaning 170 dan ortiq navi, meva va rezavor ekinlar va uzumning 175 navi parvarishlanmoqda. Bunda paxta maydonlari qisqarib, meva-sabzavot, poliz va uzum etishtirishga ixtisoslashgan maydonlarning kengayishi muhim

ahamiyat kasb etmoqda. Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2022 yilning yanvar-fevral oylarida O‘zbekiston 114 mln. dollarlik meva va sabzavotlar eksport qilgan. O‘zbekiston 2022 yilning dastlabki 2 oyida eng ko‘p meva va sabzavot mahsulotlarini eksport qilgan davlatlar: Qozog‘iston – 67,5 ming tonna, Rossiya – 29,5 ming tonna, Xitoy – 16,6 ming tonna, Qirg‘iziston – 14 ming tonna, Afg‘oniston – 6,8 ming tonna, Pokiston – 3,3 ming tonna, Ukraina – 3,3 ming tonna, Turkiya – 3,2 ming tonna, Eron – 2,5 ming tonna, Ozarbayjon – 2,4 ming tonna, Belarus Respublikasi – 2,2 ming tonna, Birlashgan Arab Amirliklari – 1,4 ming tonna, Germaniya – 553 tonna, AQSH – 386 tonnani tashkil qilgan. 2022 yilning yanvar-iyul oylarida O‘zbekiston qiymati qariyb 550 million dollarga teng bo‘lgan 968 ming tonna meva va sabzavot eksport qildi. Ushbu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda, 127 ming tonnaga ortgan. Jumladan, quritilgan meva va rezavorlar – 22,3 ming tonna tonnani, sabzavotlar – 607 ming tonnani, karam – 130 ming tonnani, pomidor – 57,6 ming tonnani, uzum – 23,2 ming tonnani, mayiz – 41,4 ming tonnani, eryong‘oq – 12,3 ming tonnani, tarvuz-qovun – 98,1 ming tonnani tashkil etgan. Ushbu sohani yanada rivojlantirishda rivojlangan davlatlar tajribasi qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishning yo‘nalishlaridan biri sohada ishlab chiqarishning zamonaviy shakllarini, jumladan, mahsulot yetishtirishning klaster usulida tashkil etish mumkinligini ko‘rsatmoqda. Shu sababli meva-sabzavot klasterlarini tashkil etish va rivojlantirish meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirishning, tarmoq samaradorlik darajasini yuksaltirishning, sohani jadal va barqaror rivojlantirishning muhim strategik yo‘nalishi sifatida qaralmoqda. Klaster - biror turdagи mahsulotni ishlab chiqarishning texnologik zanjirida ma’lum ixtisoslashuv va mehnat taqsimotiga ega hamda yagona maqsad yo‘lida uyushgan korxonalar tizimi tushuniladi. 2022 yil davomida O‘zbekiston Respublikasi hamda viloyatlarda jami 245 ta meva-sabzavotchilik klasterlari faoliyat yuritib, ularga 179,5 ming hektar er maydonlari ajratib berilgan. Ushbu klasterlarda etishtirilayotgan meva-sabzavotlar 15,3 ming nafar fermer xo‘jaliklari bilan 147,9 ming hektar yer maydonlarida meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish bo‘yicha fyu’chers shartnomasi asosida ish olib borilmoqda. Shuningdek, 62 ta klasterlarda quvvati 956,2 ming tonna bo‘lgan qayta ishlash korxonalari, 32 ta klasterlarda quvvati 290,5 ming tonna bo‘lgan mahsulotni saralash va qadoqlash, 23 ta klasterlarda quvvati 230,5 ming tonnalik mahsulotni quritish hamda 136 ta klasterlarda quvvati 360 ming tonnalik oddiy va muzlatkichli omborxonalar faoliyat yuritmoqda. Shu bilan tashkil qilingan Intensiv bog‘ va tokzorlar soni 24,5 ming hektar mahalliy, 10,8 ming hektar intensiv bog‘ va 25,6 ming hektar tokzorlardan tashkil topgan. 2022 yilda klasterlarni rivojlantirishdagi investitsiya loyihalari qiymati 478 mlrd. so‘mlik 71 ta loyiha amalga oshirilishi rejalashtirilgan bo‘lib, 500 ga yaqin ish o’rinlari yaratildi.

Respublikamizda meva-sabzavotchilik klasterlarini tashkil etish sohani yangi rivojlanish bosqichiga olib chiquvchi omil sifatida e'tirof etilmoqda. Ishlab chiqarishni tashkil etishning yangi shakli sifatida yuzaga chiqayotgan meva-sabzavotchilik klasterlarida boshqarish tizimini takomillashtirish zarurati ham mavjud bo'ladi. Meva-sabzavotchilik klasterlariniing samarali faoliyat yuritishlari, yuqori pirovard natijalarga erishishi uchun, ularni boshqarish tizimining funksiyalari, vazifalari nimalardan iborat bo'lishi lozim?, klaster ishtirokchilarining manfaatlari qanday uyg'unlashtiriladi?, klaster bilan davlat o'rtaсидagi iqtisodiy munosabatlar qanday va qaysi mexanizmlar ustivorligida amalga oshiriladi?, degan qator savollarga samarali yechim topish talab qilinadi. Bu o'z navbatida qishloq xo'jaligi, jumladan meva-sabzavotchilikni rivojlantirishning strategiyasini ilmiy asoslashni talab qiladi. Qolaversa, mamlakat aholi sonining o'sib borishi, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va mustahkamlash, tarmoqning eksport salohiyatini oshirish zarurati meva-sabzavot mahsulotlarini klaster usulida yetishtirishni yo'lga qo'yish va rivojlantirishni talab qiladi. Bu strategik vazifalar meva-sabzavotchilikda klaster tizimini shakllantirish va uni rivojlantirishga qaratilgan masalalarni yechimini topish borasidagi tadqiqotlar ko'lамини kengaytirish maqsadga muvofiq ekanligini belgilab beradi. Bizning fikrimizcha, meva-sabzavotchilik klasterlarini tashkil etish va uni samarali boshqarish masalalarini takomillashtirish borasida quyidagi yo'naliishlardagi vazifalarni belgilash va bajarish muhim ahamiyatga egadir:

- meva-sabzavotchilik klasterlari ishtirokchilarining manfaatlarini to'liq inobatga oluvchi, ularni hamkorlikda rivojini ta'minlashga qaratilgan rag'batlantiruvchi va klaster tizimida qo'shilgan qiymatni oshirishga xizmat qiluvchi chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish;
- meva-sabzavotchilik klasterlarini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish;
- meva-sabzavotchilik klasterlarini boshqarish kompaniyasi (bosh korxonasi)ning tarkibi, uning asosiy vazifalari va funksiyalari aniq belgilash;
- meva-sabzavot klasterlari ishtirokchilari o'rtaсидagi shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish;
- meva-sabzavotchilik klasterlarining davlat bilan iqtisodiy aloqalarini kengaytirish, xususan, soliq, kredit, bojxona, eksportni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish orqali amalga oshirishni talab etadi.

Shu bilan birga qishloq xo'jaligida samarali boshqaruv tizimining tashkil etilishi ham klasterlarni rivojlantirish bilan bir qatorda, sohadagi mavjud kamchiliklarni to'liq bartaraf etishga yordam beradi. Meva-sabzavotchilik klasterlarini boshqarishda muhim funksiyalaridan biri hisoblangan rejalahtirishning asosiy va eng muhim bosqichlaridan biri klasterlarning maqsadlarini tanlashdir. Shuni ta'kidlab o'tish zarurki, klasterlar ko'p bo'g'inli tizimlarda keng ifodalangan maqsadlarga ega

bo‘ladilar. Meva-sabzavotchilik klasterlarining asosiy va umumiyligi maqsadi esa uning bajaradigan vazifasi orqali belgilanadi. Uning vazifasida esa, meva-sabzavotchilik klasterining vaziyatini batafsil ifodalaydi hamda har bir tashkiliy bosqichlarda o‘z maqsadlari va strategiyalarga erishish yo‘llarini belgilab beradi. Klasterlarning maqsadlariga mos ravishda ularning tashkiliy tuzilmasi tuzilib, har bir meva-sabzavotchilik klasterini ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, o‘z tuzilmasini tuzadi va tuzilmadagi har bir bo‘lim va tarkiblari klaster maqsadini amalga oshirishga o‘z hissasini qo‘sadi. Umuman olganda, boshqaruv tuzilmasini zamonaviy shaklini ishlab chiqish hozirgi kundagi boshqaruvning asosiy mezonlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Meva-sabzavotchilik klasterlarini boshqarish mexanizmini takomillashtirishda tashkiliy-iqtisodiy jihatlariga ham alohida e’tibor qaratish lozim bo‘ladi. Shu boisdan, klasterlarning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini rivojlantirish quyidagi yo‘nalishlarda olib borilishi maqsadga muvofiqdir: -barcha ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va ularning ta’sir doirasini aniq belgilash; klasterlar faoliyatini joriy va uzoq muddatlarga rejalashtirishni amalga oshirish, barcha ishtirokchilar o‘rtasidagi eng maqbul iqtisodiy munosabatlarni o‘rnatish va bunda ularning to‘la xo‘jalik va huquqiy mustaqilligi saqlanib qolishiga erishish; -klaster tarkibiga kiruvchi bo‘linmalar va tashkilotlar o‘rtasida o‘zaro hisob-kitoblarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish va ularning huquq va majburiyatları to‘liq inobatga olinib, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash choralarini ko‘rish; meva-sabzavotchilik klasterlarni rivojlanishini ta’minlash uchun o‘zaro samarali taqsimot munosabatlarni o‘rnatish, daromadni taqsimlashda faqat klasterni rivojlantirish istiqbollarini hisobga olish, shu bilan birgalikda, klaster tarkibidagi iqtisodiy sub’ektlarning qiziqishlarini ham inobatga olish; meva-sabzavotchilik klasteridagi sub’ektlar o‘rtasidagi shartnomaviy munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish va bunda har bir tomonning qo‘shadigan hissasini va rivojlanish darajasini to‘liq hisobga olishdan iboratdir. Shu bilan bir qatorda, meva-sabzavotchilik klasterlarini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlariga ham alohida e’tibor qaratish lozimligi ko‘rsatadi. Qolaversa, meva-sabzavotchilik klasterlarining boshqaruv mexanizmini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishda o‘zaro hamkorlik munosabatlarni tashkil etish, har bir klaster ishtirokchilarining holatini baholash va rivojlanishini hisobga olish zarur bo‘ladi. Bu holatga erishish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirilishini taqozo qiladi: mamlakat va viloyatdagi meva-sabzavotchilik tarmog‘ining rivojlanishi holatini baholash va kelajakdagi holatiga erishish an’anasini hisobga olgan holda tashkil etish; klasterni tashkil etish maqsadini aniq belgilash va barcha qatnashchilar maqsadlarini shu asosiy maqsadga moslashtirish; har bir qatnashching va umuman majmuuning rivojlanish modelini ishlab chiqish va undagi mezonlarni o‘rnatish; meva-sabzavotchilik tarmog‘idagi klasterlarning atrof-muhitga va ekologiyaga ta’sirini inobatga olish.

Shuni hisobga olish kerakki, klaster faoliyatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari ko‘proq meva-sabzavotlarni ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va sotishda ushbu mahsulotlar ishlab chiqaruvchilari o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishni samarali rag‘batlantirish zarurligini ko‘rsatmoqda. Bundan tashqari, O‘zbekistonda tashkil etilgan meva-sabzavotchilik klasterlari iqtisodiy jihatdan bir tarmoqli, ya`ni, bog‘dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik yoki issiqxona komplekslari yo‘nalishlaridan biri bo‘yicha ko‘proq ixtisoslashgan va ko‘p tarmoqli (bir nechta hududga ega) ixtisosliklarda faoliyat yuritmoqda. Meva-sabzavotchilik klasterlari faoliyati va ularni boshqarish mexanizmlarini shakllantirish asosan ikki asosiy yo‘nalishda amalga oshirilmoqda.

- birinchi yo‘nalish – meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarishdan sotishgacha bo‘lgan jarayonni mustaqil amalga oshiruvchi va ularni samarali boshqarishni amalga oshiradigan yagona yoki o‘zaro bog‘langan korxonalar guruhi doirasida meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarish tashkil etilgan klasterlarni takomillashtirish;

– ikkinchi yo‘nalish – qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilariga qishloq xo‘jaligi ishlarini tashkil etish uchun ekinlar va avanslar beradigan hamda eksport qiluvchilar o‘rtasida kafolatlangan shartnomalar asosida kelishilgan narxlarda, ma‘lum tamoyillarga asoslangan shartlar asosida mahsulot sotib oladigan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilar, qayta ishslash korxonalari, qayta ishlovchilar. meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etish bo‘yicha klaster faoliyatining “urug‘lik-ko‘chat yetishtirish-yig‘ish-saqlash-qayta ishslash-tashish- bozorga yetkazib berish” kabi klaster faoliyatini takomillashtirishdan iborat bo`ladi.

Bundan tashqari, meva-sabzavotchilik klasterlarini boshqarish innovatsion texnologiyalar va texnologik aloqalarga ham bog`liq holda amalga oshiriladi. Klasterlarning tashkiliy shaklining mezonlari sifatida quyidagi xususiyatlarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

- birinchidan, ularning tuzilishi, munosabatlarning mavjudligi va o‘zaro ta’sirlarning kuchliligi (zaif, o’rta, kuchli va juda kuchli);
- ikkinchidan, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash va ulardan foydalanish hamda yaqin texnologik aloqalarning mavjudligi;
- uchinchidan, klasterlar o‘zini - o‘zi boshqaradigan va asosan o‘zini - o‘zi tashkil etuvchi iqtisodiy shaklda bo‘lishidan iboratdir.

Meva-sabzavotchilik klasterlarida o‘zini- o‘zi boshqarish va o‘zini- o‘zi tashkil etish muayyan iqtisodiy manfaatlarga asoslanadi. Bu manfaatlar mazmuni asosan innovatsion texnologiyalar va ularning texnologik aloqalari bilan belgilanadi. Klasterlar ishini rivojlantirishda ushbu muammolarni hal qilishga qaratilgan zanjirli tadbirlar, klaster subyektlari uchun, shuningdek, hududiy va milliy iqtisodiyot uchun qulaylik va imtiyozlar yaratmoqda. Xususan, rivojlangan xorijiy davlatlar

tajribasini o'rganish va respublikamizda meva-sabzavotchilik tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan huquqiy- me'yoriy asoslarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu asosda meva-sabzavotchilik klasterlarini rivojlantirishda qishloq xo'jaligini diversifikatsiya qilish, hududlarni tabiiy va iqlim sharoitiga moslashtirish; shart-sharoitlar, hosildorlik va meva-sabzavot ekinlarining eksport navlarini yetishtirish, shu bilan birga, arzon va raqobatbardosh mahsulotlarni yetishtirish, ularni saqlash, qayta ishslash va eksportga sotish jarayonlariga yangi texnologiyalarni joriy etish, yangi ish o'rnlari yaratish, va ushbu jarayon ishtirokchilarining moliyaviy manfaatlarini rag'batlantirish, sabzavot va mevalarni yetishtirish va qayta ishslash jarayonlarini yaxlit tizim sifatida shakllantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Zarur hollarda atrof-muhitning yaxshilanishiga ta'sirini oshirish bo'yicha tadbirlarni tuzish ham ayni muddao bo'ladi.

### **Adabiyotlar.**

1. Mannopova, M. S. (2018). Turizm yo`nalishida ta`lim berishning o`ziga xos xususiyatlari. *Бухоро вилоятининг туристик ва инвестицион салоҳияти халқаро илмий-амалий конференция материаллари*, 1(6), 307-310.
2. Маннопова, М. С. (2019). Хорижий мамлакатларда аҳоли бандлигини таъминлашнинг моделлари ва уларнинг ўзига хос хусусиятлари. *Европа Иттифоқи Erasmus+дастурининг MAGNET – Университетлар Ўзбекистонда ўрта ёши аҳолини ўқитиш ва касбга тайёрлаш марказларининг асосий ҳамкори*, 1(5), 150-151.
3. Маннопова, М. С. (2019). Инвестиция бу мамлакат драйвери –истиқболли иқтисодиётнинг кафолатидир. *Фаол инвестициялар ва ижтимоий ривожлантиришининг долзарб масалалари. Халқаро илмий-амалий конференция илмий мақолалар ва материаллари тўплами*. Андижон, 1(7), 106-109.
4. Маннопова, М. С. (2019). Кластеры-как драйвер экономики. *II-Международная научно-практическая конференция Аграрная экономика в условиях глобализации и интеграции ВНИОПТУСК*. г.Москва, 1(9), 23-25.
5. Маннопова, М. С. (2020). Фарғона вилоятида мева-сабзавотчилик соҳасида эришилган ютуқлар ва камчиликлар. *Фарғона вилоятини инновацион ривожлантириши: муаммолар ва ечимлар мавзусидаги республика илмий-амалий конференция материаллари Фарғона*, 1(6), 124-127.
6. Маннопова, М. С. (2019). Озиқ-овқат саноати равнақининг бекиёс аҳамияти. *Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси*, 1(1), 44-47.
7. Маннопова, М. С. (2022). Ўзбекистонда мева-сабзавотчилик йўналишидаги кластерларни ривожлантириш ва бошқаришнинг асосий вазифалари. *Biznes-эксперт*, 1(6), 48-52.
8. Халматжанова, Г. Д., & Маннопова, М. С. (2020). РАЗВИТИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ С УЧЁТОМ ТЕНДЕНЦИЙ РАЗВИТИЯ МИРОВОЙ ЭКОНОМИКИ. In *МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИНИ*

*ИНВЕСТИЦИЯЛАШНИНГ МОЛИЯВИЙ-ХУҚУҚИЙ ВА ИННОВАЦИОН ЖИҲАТЛАРИ* (pp. 238-244).

9. Khalmatjanova, G. D., & Mannopova, M. S. (2021). Priority areas in agricultural development in the Republic of Uzbekistan. In *The Challenge of Sustainability in Agricultural Systems: Volume 1* (pp. 49-54). Cham: Springer International Publishing.
10. Маннопова, М. С. (2019). Основные проблемы в сфере переработки плодоовощной продукции в Республике Узбекистан. *Образование и наука в России и за рубежом*, (16), 175-180.
11. Маннопова, М. С., & Абдуллаева, Ш. Э. (2021). Ўзбекистонда қишлоқ хўжалигини диверсификациялаш жараёнида мева-сабзавот кластерларини ривожлантиришнинг ўзига хос хусусиятларини. *Экономика и социум*, 10, 89.
12. Mannopova, M. C. (2020). РАЗВИТИЕ КЛАСТЕРОВ В ПЛОДООВОЩНОМ НАПРАВЛЕНИИ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ И ИХ ФУНКЦИИ. In *МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИНИ ИНВЕСТИЦИЯЛАШНИНГ МОЛИЯВИЙ-ХУҚУҚИЙ ВА ИННОВАЦИОН ЖИҲАТЛАРИ* (pp. 320-324).
13. Маннопова, М. С., & Хасанов, И. М. (2020). РАЗВИТИЕ ИНВЕСТИЦИЙ-ГАРАНТИЯ ПЕРСПЕКТИВНОЙ ЭКОНОМИКИ. In *МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИНИ ИНВЕСТИЦИЯЛАШНИНГ МОЛИЯВИЙ-ХУҚУҚИЙ ВА ИННОВАЦИОН ЖИҲАТЛАРИ* (pp. 301-306).
14. Mannopova, M. S., & Khalildinov, A. A. (2022). THE IMPORTANCE OF THE EFFECTIVE USE OF FRUIT VEGETABLE CLUSTERS IN AGRICULTURE OF UZBEKISTAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 29, 117-120.
15. Mannopova, M. S. (2022). Main Directions of Development of Fruit and Vegetable Clusters in Agriculture of Uzbekistan. *American Journal of Economics and Business Management*, 5(11), 106-109.
16. Mannopova, M., & Abdullayeva, S. (2022). THE WORK DONE AND THE DESIGNATED TASKS FOR THE DEVELOPMENT OF FRUIT AND VEGETABLE CLUSTERS IN UZBEKISTAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 24, 1126-1129.
17. Абдуллаева, Ш. Э., & Маннопова, М. С. (2022). Основные направления развития и управления плодоовощными кластерами. *Ta'lim fidoyilari*, 6(7), 507-512.
18. Abdurahimovna, C. D., & Sultanbekovna, M. M. (2022). Cost and Accounting Concepts in Accounting and Their Accounting. *Global Scientific Review*, 4, 21-26.
19. Маннопова, М. С. (2022). Ўзбекистон қишлоқ хўжалигига мева-сабзавотчилик кластерларини ривожлантиришнинг асосий йўналишлари. *New innovations in national education*, 1(6), 12-16.
20. Маннопова, М. С. (2022). Жаҳон мамлакатларида қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқаришнинг самарали ёндошувлари. *New innovations in national education*, 1(6), 4-11.
21. Sultonbekovna, M. M., & Shuxratovich, A. S. (2023). О ‘ZBEKİSTON QISHLOQ XO ‘JALIGIDA YER RESURSLARIDAN FOYDALANISH

- SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ASOSIY YO ‘NALISHLARI. *Journal of new century innovations*, 23(3), 39-45.
22. Sultonbekovna, M. M. (2023). OZBEKISTONDA MEVA-SABZAVOTCHILIK KLAGSTERLARINI RIVOJLANTIRISH VA BOSHQARISHNING OZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Journal of new century innovations*, 23(3), 25-31.
23. Sultonbekovna, M. M., & Esonovna, A. S. (2023). O ‘ZBEKISTONDA INVESTITSIYA MUHITINI SHAKLLANTIRISHNING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Journal of new century innovations*, 23(3), 58-64.
24. Sultonbekovna, M. M. (2023). MEVA-SABZAVOTCHILIK KLAGSTERI KORXONALARI FAOLIYATIDA BOSHQARUV MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH. *Journal of new century innovations*, 23(3), 18-24.
25. Mannopova, M. S. (2022). O ‘zbekistonda meva-sabzavotchilik yo ‘nalishidagi klasterlarni rivojlantirish va boshqarishning asosiy vazifalari. *Biznes-ekspert*, 1(6), 48-52.
26. Mannopova, M. S. (2022). O ‘zbekiston qishloq xo ‘jaligida meva-sabzavotchilik klasterlarini rivojlantirishning asosiy yo ‘nalishlari. *New innovations in national education*, 1(6), 12-16.
27. Mannopova, M. S. (2020). RAZVITIE KLAGSTEROV V PLODOOVOI<sup>Ц</sup>NOM NAPRAVLENII V SELSKOM XOZYAYSTVE I IX FUNKSII. *MINTAQAs IQTISODIYOTINI INVESTITSIYALASHNING MOLIYAVIY-HUQUQIY VA INNOVATSION JIHATLARI*, 320-324.
28. Mannopova, M. S., & Xasanov, I. M. (2020). RAZVITIE INVESTITSIY-GARANTIYA PERSPEKTIVNOY EKONOMIKI. *MINTAQAs IQTISODIYOTINI INVESTITSIYALASHNING MOLIYAVIY-HUQUQIY VA INNOVATSION JIHATLARI*, 301-306.
29. Mannopova, M. S. (2020). Farg ‘ona viloyatida meva-sabzavotchilik sohasida erishilgan yutuqlar va kamchiliklar. *Farg ‘ona viloyatini innovatsion rivojlantirish: muammolar va echimlar mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari Farg ‘ona*, 1(6), 124-127.
30. Mannopova, M. S. (2019). Klasterы-kak drayver ekonomiki. II-Mejdunarodnaya nauchno-prakticheskaya konferensiya Agrarnaya ekonomika v usloviyakh globalizatsii i integratsii VNIOPTUSK. g. Moskva, 1(9), 23-25.
31. Mannopova, M. S. (2019). Investitsiya bu mamlakat drayveri-istiqbolli iqtisodiyotning kafolatidir. *Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlantirishning dolzarb masalalari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ilmiy maqolalar va materiallari to ‘plami. Andijon*, 1(7), 106-109.
32. Mannopova, M. S. (2019). Osnovnye problemy v sfere pererabotki plodoovochnoy produksii v Respublike Uzbekistan. *Obrazovanie i nauka v Rossii i za rubejom*, (16), 175-180.
33. Mannopova, M. S. (2019). Xorijiy mamlakatlarda aholi bandligini ta’minlashning modellari va ularning o ‘ziga xos xususiyatlari. *Evropa Ittifoqi Erasmus+dasturining MAGNET–Universitetlar O ‘zbekistonda o ‘rta yosh aholini o ‘qitish va kasbga tayyorlash markazlarining asosiy hamkor*, 1(5), 150-151.

34. Abdullaeva, S. H. E., & Mannopova, MS (2022). *Osnovnye napravleniya razvitiya i upravleniya plodoovoshchym klasterami. Ta'lim fidoyilari*, 6(7), 507-512.
35. Sultonbekovna, M. M. (2023). MEVA-SABZAVOTCHILIK KLASTERLARINING RIVOJLANTIRISH VA ULARNI BOSHQARISHNING TASHKILIY TUZILMALARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 33, 419-423.
36. Akhmedova, N. K., & ugli HOMIDOV, K. K. (2022). Institutional Basis of Digitalization of Management Activity of Food Industry Enterprises in Uzbekistan. *American Journal of Economics and Business Management*, 5(11), 34-38.
37. Egamberdievna, N. S. (2023). IQTISODIYOTNI ERKINLASHTIRISH SHAROITIDA RAQOBAT MUHITINI TAMINLASHDA KICHIK BIZNES SUBEKTTLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM OMILLARI. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 2(16), 294-300.
38. AXUNOVA, O. E., & NEMATOVA, S. E. (2021). LABOR MARKET PROBLEMS IN UZBEKISTAN IN THE CONTEXT OF COVID-19 PANDEMIA. *GLOBUS*, 7(8), 21-24.
39. Нематова, Ш. Э. (2021). Ўзбекистонда енгил саноат тармоқларининг ривожланиши. *Scientific progress*, 2(2), 607-615.
40. Ergashovna, A. O., & Egamberdievna, N. S. (2022). The role of human capital in economic development. *Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences*, 2(2), 100-106.
41. Nematova, S. (2022). Structural changes in the innovation-investment entrepreneurship of the economy of the region. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, 11(10), 184-187.
42. SE Nematova, IIO Usmonaliyev. O 'ZBEKISTONDA BANKNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION XIZMAT TURLARINI JORIY ETISH YO 'LLARI. Academic research in educational sciences 4 (1), 5-10
43. S Nematova. Use of Intellectual Property Objects in the Process of Forming the Innovation Environment of the Cluster. Miasto Przyszłości 28, 448-452.
44. Нематова, Ш. Э., Тухтасинова, С. Д. К., & Тоиржонова, Ш. Ш. К. (2022). ИЗУЧЕНИЕ И ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ. *CETERIS PARIBUS*, (2), 32-35.
45. Ш Нематова. РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТНИНГ АСОСИЙ РИВОЖЛАНИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ. Интернаука, 28-29
46. AO Ergashovna, NS Egamberdievna, SR Abdurahmonovich. The Current State of the Cocktail Market in Uzbekistan JournalNX 7 (03), 87-91